

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



RAQAMLI
MARKETING
BIZNES
SAVDO
INNOVATSIYA
TARQIQUVCHI
NATIJALI
BREMUNDU

№ 8 – SON

2025-YIL, AVGUST

9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621



OPEN ACCESS



JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdirahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumayev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti "Menejment va marketing" kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Tuychiyev Alisher Jurayevich, Alfraganus University "Iqtisodiyot" fakulteti dekani professor

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Elektron nashr 352 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 29-avgustda ruxsat etildi

MUNDARIJA

РАЗВИТИЕ ЦИФРОВОГО МАРКЕТИНГА В МАЛОМ БИЗНЕСЕ	6
Касимова Фатима Тулкиновна	
THE ROLE OF DIPLOMATIC INITIATIVES IN STRENGTHENING INDIA–	
UZBEKISTAN ECONOMIC TIES	13
Abror Kucharov, Jyoti Meshram	
DISTINCTIVE FEATURES OF DATA PROCESSING IN TOURISM AND THE	
POSSIBILITIES OF THEIR USE	22
Abduvokhidov Abdumalik Makhkamovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TRANSPORT TIZIMINING	
IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH	32
Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich	
XODIMLAR BILAN HISOB-KITOBLAR AUDITINI REJALASHTIRISHNI	
TAKOMILLASHTIRISH.....	40
Ametova Nasiba Danilovna	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLARNING NAZARIY MASALALARI	52
Gozieva Mokhira Rustamovna	
ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC PECULIARITIES OF PRODUCTION	
OF BUILDING MATERIALS FROM THE POINT OF VIEW OF	
INNOVATION	60
Igamova Shaxinya Zikrilloyevna	
QURILISH TASHKILOTLARINING INNOVASION RIVOJLANISHIDA	
XODIMLAR FAOLLIGINING AHAMIYATI VA UNI OSHIRISH YO‘LLARI..	70
Karimova Aziza Azamiddin qizi	
TASHKILOTDAGI BOSHQARUV TIZIMINING MEHNAT	
SAMARADORLIGIGA TA’SIRI.....	78
Usmonov Adxamjon A’zamjonovich	
OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA STRATEGIK RIVOJLANISH	
LOYIHALARINI BOSHQARISH: LOYIHA BOSHQARUVI YONDASHUVLARI	
ASOSIDA.....	87
Sobirjanova Oydina Bobir qizi	
LOGISTIKA PROVAYDERLIK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI	
OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH AMALIYOTI	
96	
Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
TASHQI BOZORLARGA INTEGRATIVASIYALASHUVNING MINTAQAVIY	
IQTISODIYOTGA TA’SIRI VA UNGA NISBATAN NAZARIY	
YONDASHUVLAR	107
Ozodova Farida Zarif qizi	

KORXONADA ISHLAB CHIQUARISH POTENTIALIDAN FOYDALANISH TAHLILI	112
Musayeva Shoirazimovna	
BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLAR HISOBINI TASHKIL ETISH VA YURITISHNI TAKOMILLASHTIRISH (OLIIY TA'LIM MISOLIDA).....	122
Murtozaev Sanjar O'tkir o'g'li	
FEATURES AND DISADVANTAGES OF IMPLEMENTING THE DIGITAL ECONOMY FOR CONSTRUCTION COMPANIES	128
Kurbanova Maftuna Lazizovna	
ОЦЕНКА КОММЕРЧЕСКОЙ НЕДВИЖИМОСТИ В E-COMMERCE-ЭПОХУ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНАЯ ПРАКТИКА	140
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
TEMIR YO'L TRANSPORTI TIZIMINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH USULLARI	152
Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich	
KICHIK BIZNESNING SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUARISH JARAYONIDAGI TENDENSIYALARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA) ..	159
Salayev Jasurbek Komilovich	
KORPORATIV BOSHQARUVDA INNOVATSION USULLARNI JORIY ETISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	170
Ismailov Allayor Rashidovich	
OLMAZOR TUMANI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI INNOVATSION BOSHQARUV ORQALI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI VA IMKONIYATLARI	181
Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li	
ANALYSIS OF INDONESIA'S DUALISTIC FINANCIAL SYSTEM AND ITS POSSIBILITIES FOR USE IN UZBEKISTAN	193
Irgasheva Gulbakhor	
HUDUDLARNI EKSPORT SALOHIIYATINI OSHIRISHDA MAHALLIY BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH	202
Bekchanov Davron Masharipovich	
РАЗВИТИЕ ИННОВАЦИОННОГО МЕНЕДЖМЕНТА В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНОЙ КОНКУРЕНЦИИ	219
Азизов Ильдар Рафаэлевич	
TIJORAT BANKLARIDAN UNDIRILADIGAN FOYDA SOLIG'INING DAVLAT BYUDJETIGA TA'SIRI	226
Ergasheva Lobar Raxmatulla qizi	
ЭТАПЫ РАЗРАБОТКИ ПУТЕЙ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ	232
Кучаров Абдор Собиржонович, Бобожонов Азизжон Бабаханович, Хусейнов Рахим Али оглы	

RAQAMLI IQTISODIYOTNING MEHNAT BOZORIGA TA’SIRI VA YANGI KASBLAR	240
Sadriddinova Xilola Raxmatullayevna	
THE FACTORS THAT INFLUENCE THE PRICING OF A PRODUCT OR SERVICE.....	247
Sa’dullayeva Sayyora Nasillo qizi	
O’ZBEKISTONDA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI: MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR VA INNOVATSION YECHIMLAR.....	253
Matkarimov Jahongir Shamuratovich	
XALQARO RAQOBATBARDOSHLIKNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI ..	267
Mallaboev Anvarjon Sotvoldievich	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	275
Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich	
ЦИФРОВАЯ РЕВОЛЮЦИЯ И НОВОЕ КАЧЕСТВО МАРКЕТИНГОВЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ МАЛОГО БИЗНЕСА	283
Вахабов Асадулло Убайдулло угли	
FINTECH VA BANKLAR O’RTASIDAGI QARAMA-QARSHILIK VA ULARNING INTEGRATSIYALASHUV IMKONIYATLARI	291
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi	
KORXONALARDA MOLIYAVIY REJALASHTIRISHNI RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASINING UMUMIY YO’NALISH VA XUSUSIYATLARI	298
Pardayev Jamshid Muzaffarovich	
SAMARQAND VILOYATIDA XIZMAT KO’RSATISH SOHASINING HOLATI VA SOHANI YANADA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	308
Normurodov Umidjon Normurod o’g’li, Shadiyeva Lobar Abdurazikovna	
XODIMLARNI RIVOJLANTIRISH – KADRLAR SIYOSATIDAGI ASOSIY USTUVOR YO’NALISHLARDAN BIRI	316
Sattarov Shuxrat Abug’affarovich	
DAVLAT IQTISODIYOT XAVFSIZLIGINI O’RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI	323
Karimov Javlon Ko’ziyevich	
MINTAQA IQTISODIY TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI.....	333
Mamadjanova Tuyg’unoy Axmadjanovna	
SANOAT KORXONALARI ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARIDA SUN’IY INTELLEKTDAN SAMARALI FOYDALANISH.....	344
Rixsiboyev Nozimbek Abdurasul o’g’li	

SAMARQAND VILOYATIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING HOLATI VA SOHANI YANADA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Normurodov Umidjon Normurod o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti, PhD.

Shadiyeva Lobar Abdurazikovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti stajyor-tadqiqotchisi.

Annotatsiya

Ushbu maqolada Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati tahlil qilinib, sohaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashdagi ahamiyati o'rganildi. Viloyatda YaHMning o'sishini ta'minlashda xizmat ko'rsatish sohasining hissasi tahlil qilinib, sohani yanada rivojlantirish imkoniyatlari bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish sohasi, YaIM, YaHM, tadbirkorlik muhiti, tendensiyalar.

Аннотация

В статье анализируется состояние сферы услуг Самаркандской области и изучается её значение в обеспечении социально-экономического развития. Проанализирован вклад сферы услуг в обеспечение роста ВРП региона и разработаны предложения по дальнейшему развитию отрасли.

Ключевые слова: сферы услуг, ВВП, ВПП, предпринимательская среда, тенденции.

Abstract

This article analyzes the state of the service sector in the Samarkand region and examines its importance in ensuring socio economic development. The contribution of the service sector to the growth of the region's gross regional product is analyzed, and proposals for the further development of the industry are developed.

Keywords: service sector, GRP, business environment, trends.

KIRISH

Jahonda globallashuv jarayonlarining chuqurlashishi natijasida xizmat ko'rsatish sohasida jadal o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. "Xizmatlar sohasining jahon YaIMdagi ulushi oxirgi 25 yilda 54,2% dan 65,0% ga yetib, ko'rsatilgan xizmatlarning hajmi 3,1 barobarga va sohada band aholining ulushi 38,0% dan 50,6% gacha oshgan. Shu davrda YaIMdagi sanoatning ulushi 31,9% dan 24,8% gacha, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari esa 7,6% dan 3,5% gacha qisqargan" [1]. Hozirgi vaqtda biron bir davlatni rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shish uchun yaratilayotgan milliy iqtisodiyoti yalpi ichki mahsulot tarkibida xizmat ko'rsatish sohasining ulushi 65 foizdan yuqori bo'lishi asosiy mezon hisoblanadi. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulot tarkibida xizmat ko'rsatish va servis sohasining ulushi 65-80 foizini tashkil etmoqda. Shuningdek, jahon mamlakatlarida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmining 40,0 foizi xizmat ko'rsatish sohasiga to'g'ri kelmoqda[2].

Mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasini sifat jihatdan yangi pog'onaga ko'tarish va samaradorligini oshirish, sohaga boshqaruvning zamonaviy tizimini va

raqamli texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohaslarini rivojlantirish orqali keyingi 5 yilda xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda ushbu yo'nalishda jami 3,5 million yangi ish o'rinlarini yaratish" [3] vazifalari belgilangan.

Qayd etilganlardan ko'rinib turibdiki, bugungi kunda jahonda davom etayotgan turli inqiroziy holatlar sharoitida, O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasini davlat tomonidan yanada qo'llab quvvatlash bo'yicha imtiyozlar berish, infratuzilmani yanada rivojlantirish orqali tadbirkorlik muhitini yaxshilash, bu jarayonlarda yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va bartaraf etish borasida ilmiy tavsiyalar va takliflar ishlab chiqish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi bilan bog'liq turli jabhalarga xos nazariy va metodologik masalalar o'rganilgan. Xususan, xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiy taraqqiyotda tutgan o'rni, uning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholash, xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiy tahlili va shu kabi muammolar xorijiy olimlardan K.Xaksever, B.Render, R.Rassel, R.Merdik, L.Berri, K.Gryonroos, S.Abramov, N.Ivanov[4] kabilarning ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan.

O'zbekistonda xizmatlarning ijtimoiy-iqtisodiy tabiati va uni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini M.Q.Pardayev[5], xizmat ko'rsatish sohasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rni M.M.Muxammedov[6], xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarida samaradorlikni oshirish yo'llarini I.Ochilov [7] lar o'z ilmiy ishlarida batafsil yoritganlar. Shuningdek, F.Safarov[8] xizmat ko'rsatish sohasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlashtirib, xizmat ko'rsatish sohasining yirik va o'rta, salohiyati yetarlicha rivojlanmagan va rivojlanish ko'rsatkichlari past korxonalar klasterlariga ajratgan holda sohani qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish mumkinligini asoslab bergan.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda xizmat ko'rsatish sohasining holatini baholash uchun monografik, ekspert va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi. Statistik tahlil jarayonida Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasiga oid 2020-2025 yillardagi ma'lumotlar yig'ilib, chuqur tahlil qilindi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakat milliy iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi xizmat ko'rsatish sohasi hisoblanadi. Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning hozirgi bosqichida xizmat ko'rsatish sohasining milliy iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati yildan yilga oshib bormoqda. Bu mamlakat miqyosida ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmining o'sib borishi, mamlakat iqtisodiyotida chuqur tarkibiy o'zgarishlarga va nodavlat mulkiga asoslangan xususiy sektorning vujudga kelishiga orqali ham namoyon bo'lmoqda.

Tabiiyki, xizmat ko'rsatish sohasini baholash uslubi yuqorida zikr etilgan barcha jarayonlar va bog'liqliklarni o'zida aks ettirishi lozim. Mavjud adabiyotlarda xizmat

ko'rsatish sohasining milliy iqtisodiyotdagi, uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rnini, uning samaradorligini, raqobatbardoshligini yoki boshqa ba'zi bir jihatlarini baholash, asosan, quyidagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar orqali ifoda etilgan.

Xizmat ko'rsatish sohasini mamlakatning YaIM tarkibi bo'yicha baholash. Xizmat ko'rsatish sohasini bunday yondashuv asosida baholash, uning mamlakat iqtisodiyotidagi mavqeyini ko'rsatadi. Chunki, YaIM iqtisodiyotning moddiy hamda nomoddiy sohalari bo'yicha iqtisodiy faoliyatning yakuniy natijalarini tavsiflovchi makroiqtisodiy ko'rsatkichdir. YaIM tarkibida xizmat ko'rsatish sohasining ulushi qancha yuqori bo'lsa, mamlakat aholisining turmush darajasi va sifati ham shunchalik yuqori bo'ladi. O'zbekiston va Samarqand viloyati YaIM (YaHM)da xizmat ko'rsatish sohasining ulushi 1-rasmda keltirilgan.




1-rasm. Xizmat ko'rsatish sohasining YaIM va YaHMDagi ulushi, foizda¹

Keltirilgan 1-rasmdan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda 2024-yilda xizmat ko'rsatish sohasining YaIM tarkibidagi ulushi 47,4 foizni tashkil qilib, oxirgi uch yil mobaynida xizmat ko'rsatish sohasining YaIMdagi ulushi muttasil o'sib borganligini kuzatish mumkin. Mamlakatimizdagi kabi Samarqand viloyatida ham xizmat ko'rsatish hajmi barqaror o'sib borgan. Jumladan, 2022-yilda – 39,7 foiz, 2023-yilda – 43,5 foiz va 2024-yilda esa – 44,9 foizgacha o'sishga erishgan. Ushbu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlarda 65 foizni tashkil etishini hisobga olib, respublikada va viloyatda ushbu sohani jadal sur'atlar bilan rivojlantirish va uning mamlakat YaIM

¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy sayti <https://stat.uz>, ma'lumotlari asosida hisoblandi.

(YaHM) tarkibidagi ulushini yanada oshirish lozim. Mamlakatda olib borilayotgan tarkibiy o'zgarishlar xam aynan shunga qaratilgan.

Viloyat YaHM tarkibida xizmatlar sohasi ulushining oshib borishiga asosan ko'rsatilgan xizmatlar hajmining yildan-yilga oshishini ko'rsatib o'tish mumkin (2-rasm).



2-rasm. Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati, mlrd.so'm¹.

2-rasm ma'lumotlaridan quyidagi xulosalar qilindi. Xizmatlar ko'rsatish hajmi tahlil olib borilgan 2022-2024-yillarda barqaror ko'payib, Samarqand viloyat iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sohasining hajmi 2024-yilda 2023-yil bilan taqqoslaganda 12282,7 mlrd.so'mga ko'paygan. Viloyatda 2023-yilda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2022-yilga nisbatan solishtirganda 2,0 martaga oshgan. Ushbu ko'rsatkichlar esa albatta ijobiy holatdir. Shu sababli ham YaHM hajmini oshirishda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, uning tarmoqlarini modernizatsiyalash muhim ahamiyatga ega.

Xizmatlar sohasining yil sayin o'sishiga, albatta xizmat ko'rsatish tarmoqlarining ko'payishi va zamonaviy turlarining paydo bo'lishi ham asosiy sabablardan biri bo'lib hisoblanadi. Shu bois, bizlar tahlilning keyingi bosqichida xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlari tarkibini Samarqand viloyati bo'yicha tahlil qilishni lozim topdik (1-jadval).

Keltirilgan 1-jadval ma'lumotlari hisob-kitobi shuni ko'rsatmoqdaki, Samarqand viloyatida axborot va aloqa sohasidagi xizmatlarda (24,8 foiz), transport xizmatlarida (17,9 foiz) hamda savdo xizmatlarida (17,7 foiz) 2023-yilga nisbatan 2024-yilda o'sish sur'ati yuqori bo'ldi. Tahlil olib borilgan davrda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 33,5 foizga etib eng

¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi Samarqand viloyat statistika boshqarmasi rasmiy sayti <https://samstat.uz/uz/> ma'lumotlari asosida hisoblandi.

yuqori ulushni tashkil etdi. Shuningdek, savdo xizmatlari – 18,0 %, transport xizmatlari – 16,8 %, moliya xizmatlari – 9,4 % ko‘rsatkich bilan yuqori ulushni tashkil etdi. Viloyatda eng kam ulush me‘morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarga to‘g‘ri kelib, uning jami xizmatlardagi ulushi 2024-yilda – 0,9 foizni tashkil qilgan.

1-jadval

Samarqand viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasining tarkibiy tahlili¹

	Ko‘rsatkichlar	2023 yil	2024 yil	O‘sinh sur‘ati, % da	Ulushi, % da
№	Xizmatlar – jami	46593,0	58875,7	114,1	100,0
1.	yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	15564,5	19696,0	111,1	33,5
2.	savdo xizmatlari	8474,0	10590,6	117,7	18,0
3.	transport xizmatlari	7476,9	9865,5	117,9	16,8
4.	shu jumladan: avtotransport xizmati	6898,5	8723,4	115,1	14,8
5.	moliya xizmatlari	4559,6	5505,9	115,2	9,4
6.	ta‘lim sohasidagi xizmatlar	1994,7	2343,5	109,4	4,0
7.	axborot va aloqa sohasidagi xizmatlari	1500,9	2013,4	124,8	3,4
8.	boshqa shaxsiy xizmatlar	1430,3	1771,3	110,0	3,0
9.	kompyuterlar, shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar	1120,0	1405,5	112,2	2,4
10.	sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	880,0	1106,0	113,4	1,9
11.	ijara xizmatlari	814,3	1077,7	110,0	1,8
12.	ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	809,2	1020,6	113,1	1,7
13.	me‘morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	433,6	536,5	102,9	0,9
14.	boshqa turdagi xizmatlar	1535,0	1943,2	108,2	3,3

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev qayd etib o‘tganlaridek, “Agar hududlarning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan ko‘rsatkichlarini solishtirsak, ular kun va tunde bir-biridan farq qiladi”[9].

Yuqoridagi fikr mulohazadan kelib chiqqan holda bizlar aholiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining qay darajada rivojlanayotganligini bilish uchun, viloyat va uning hududlari bo‘yicha aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan xizmatlar hajmi tarkibi holatini o‘rganishdik (2-jadval).

¹ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi Samarqand viloyat statistika boshqarmasi rasmiy sayti <https://samstat.uz/uz/> ma‘lumotlari asosida hisoblandi

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi viloyat va uning hududlari bo'yicha 2022-2024 yillarga solishtirma ko'rsatkichlarni tahlildan quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

2-jadval

Samarqand viloyatida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining dinamikasi, ming so'm¹

Hududlar nomi	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2024 yilda o'zgarishi, %	
				2022 yilga nisbatan	2023 yilga nisbatan
Tumanlar bo'yicha	5579,2	6963,5	13843,3	248,1	198,8
Samarqand sh.	17115,9	21874,7	27862,0	162,8	127,4
Kattaqo'rg'on sh.	5707,9	6913,4	9494,8	166,3	137,3
Oqdaryo	4709,5	5125,8	6826,3	144,9	133,2
Bulung'ur	3110,0	3843,7	4770,4	153,4	124,1
Jomboy	5386,1	6442,1	7901,7	146,7	122,7
Ishtixon	3026,0	3652,1	4527,5	149,6	124,0
Kattaqo'rg'on	3135,6	3584,6	4352,9	138,8	121,4
Qo'shrabot	3281,0	3978,5	4826,3	147,1	121,3
Narpay	3396,5	4128,4	4970,4	146,3	120,4
Payariq	3047,5	3737,6	4827,8	158,4	129,2
Pastdarg'om	3758,4	4668,3	5885,2	156,6	126,1
Paxtachi	3384,2	4150,7	4895,2	144,6	117,9
Samarqand	5759,8	8168,8	9326,9	161,9	114,2
Nurobod	2878,9	3391,0	4214,7	146,4	124,3
Urgut	2839,5	3332,6	4037,5	142,2	121,2
Tayloq	4680,9	5928,7	7262,0	155,1	122,5

Birinchidan, Samarqand shahrida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2024 yilda 27862,0 ming so'mni tashkil etib, hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkichga erishgan. Bu yerda aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmining o'sishi avvalo, shahar yetarli darajada rivojlangan hudud hisoblanadi hamda bu yerda yashaydigan aholining real daromadlar darajasi boshqa hududlarga nisbatan balandroq. Samarqand shahri bilan bir qatorda yuqori o'sish ko'rsatkichlari Kattaqo'rg'on shahri (9494,8 ming so'm), Samarqand tumani (9326,9 ming so'm) va Jomboy (7901,7 ming so'm) tumanida ham qayd etildi. Urgut (4037,5 ming so'm) va Nurobod (4217,7 ming so'm) tumanlarida boshqa hududlarga qaraganda aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi nisbatan past bo'ldi. Shuni ta'kidlash lozimki, aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmining o'sishiga ta'sir ko'rsa-tuvchi omillardan biri bu aholi soni hisoblanadi. Aholi soni kam bo'lgan hududlarda, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi ham yuqori bo'ladi;

¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi Samarqand viloyat statistika boshqarmasi rasmiy sayti <https://samstat.uz/uz/> ma'lumotlari asosida hisoblandi.

Ikkinchidan, 2022-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davr oralig'ida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hududlararo keskin farq qildi. Bu ko'rsatkich viloyat bo'yicha o'rtacha 2024-yilda 13843,3 ming so'mni tashkil qilgan holda tebranish miqdori 27862,0 – 4037,5 ming so'mgacha. Ushbu ma'lumotlar viloyatning hudud-larida aholining yashash darajasi va daromadlarini har xil ekanligidan darak beradi;

Uchinchidan, aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning bir tekisda bo'lmasa ham barcha hududlarda yil sayin ortib borayotgani kuzatilmoqda. Bu esa ijobiy holatdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xizmat ko'rsatish sohasi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida, xususan, YaIM ishlab chiqarishda, aholini ish bilan ta'minlashda, uning turli ehtiyojlarini qondirishda turmush darajasi va sifatini oshirishda, davlat byudjetini shakllantirishda yetakchi o'rin tutadi.

Shu bilan bir qatorda, xizmat ko'rsatish sohasi ko'p tarmoqli va bir vaqtning o'zida bir necha yo'nalishda faoliyat olib boruvchi soha. Ushbu sohada doimiy tarzda o'zaro milliy iqtisodiyotning boshqa sohalari bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar sodir bo'ladi va rivojlanib boradi. Xizmat ko'rsatish sohasi, bir tomondan, milliy iqtisodiyotning boshqa soha hamda tarmoqlariga, ularning holati va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, uning rivojlanish imkoniyatlari hamda istiqbollari boshqa soha va tarmoqlar dinamikasi bilan belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, olib borilgan tahlil ma'lumotlaridan O'zbekistonda, xususan Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasini jahon talablari asosida rivojlantirish, sohaning innovatsion asoslarini kuchaytirish, xizmat ko'rsatishning yangi turlari va shakllarini keng joriy qilish, xizmat ko'rsatish sohasini kengaytirish orqali mikro va makro darajada barqarorlik ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilash kabi yo'nalishlarda keng qamrovli tadbirlar amalga oshirilgani aniqlandi. Xizmat ko'rsatish sohasidagi bunday ijobiy o'sish tendensiyasi — viloyat va mamlakat iqtisodiyotining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichi hisoblanadigan YaHM va YaIM hajmining ham ko'payishiga xizmat qiladi. Bunday ijobiy holatni kelgusida ham saqlab qolish chora-tadbirlarini ko'rish, bugungi turli inqirozlar sharoitida o'ta dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jahon banki ma'lumotlari, 2020.
2. <https://www.worldbank.org/en/topic/sme/finance>
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-йил 28-январдаги ПФ-60-сон “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
4. Хаксевер К., Рендер Б., Рассел Р., Мердик Р. Управление и организация в сфере услуг, 2-е изд. Издательство: Питер, 2002. 752 стр.; Berry L. L. Services Marketing is Different // Business. 1980. Vol. 30. May-June. P. 24-29; Grönroos C. Service management and marketing. Lexington, MA: Lexington books; 1990;

Абрамов С.С. Оценка социальноэкономической эффективности сферы услуг региона. Научно-технические ведомости СПбГПУ №3, 2011. Экономические науки, с. 41-44; Иванов Н.Н. Сфера услуг как объект исследования и управления. СПб., 2000.

5. Пардаев М.Қ. Хизматларнинг ижтимоий-иқтисодий табиати ва уни ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятлари (Назарий жиҳатлари) // “Сервис”. – Самарқанд. – 2009. — №1. — б.38-46;

6. М.М.Мухаммедов. Хизмат кўрсатиш соҳасининг мамлакат ижтимоий-иқтисодий тараққиётидаги ўрни (назарий жиҳат) // “Сервис”. – Самарқанд. – 2012. — №1. — б.15-21

7. Пардаев М., Очилов И. Хизмат кўрсатиш соҳаси корхоналарида самарадорликни ошириш йўллари. Монография. Тошкент. 2011;

8. Safarov F.A. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Samarqand-2023.

9. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Т.: «Ўзбекистон», 2017. 49-бет.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, avgust, 8-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**